

## O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB YO‘NALISHLARI

**Narziyeva Mastura Sunnatovna**

Buxoro viloyati PYaMO‘MM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim  
metodikalari kafedrası mudiri

### ABSTRACT

Formation of communication skills is important for today. Basically, it is necessary to create an educational environment for students to develop these skills. The article describes the directions for the development of communicative skills.

**Keywords:** education, environment, skills, development, create, student

Kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish hozirgi kun uchun muhim ahamiyatga ega. Asosan, o‘quvchilarda bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ta‘limiy muhit yaratilishi zarur. Kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi ba‘zi muammolar sifatida

- ✓ diqqatning yetishmasligi,
- ✓ lug‘at doirasining sayozligi,
- ✓ fiziologik (yo‘l halokatga uchrash,
- ✓ uzoq muddatli bemorlik,
- ✓ tug‘ilish jarayonidagi muammolar)
- ✓ psixologik (qo‘rquv, stress, depressiya) salbiy holatlar
- ✓ genetik muammolar qayd etiladi.

Bunda ba‘zi tug‘ma bo‘lmagan nuqsonlar korreksiyalanadi yoki ta‘lim jarayonida kommunikativ rivojlantiruvchi muhit yaratish orqali ijobiy hal etiladi. Asosan bu jarayonlar o‘quvchilarga tasvirlarni tomosha qilish orqali muloqotning verbal (Nima tasvirlangan? Qanday ko‘rinishga ega?, nima qilyapti?, kimlar bor?, qaysi vaqt? savol-javob va qisqa hikoyalash) usullaridan foydalanish, motivatsion (tezkorlik, bilimdonlik, rassomlik), muammo yechimi (topqirlik, davom ettirish) ga yo‘naltirilgan, aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr- mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodlarini qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

Og‘zaki usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar doira shaklida o‘rnashib olishlari kerak. Bu birinchidan, har bir ta‘lim oluvchining bir-biri bilan yuzma-yuz holatda “ko‘z muloqoti”ni o‘rnatishga yordam beradi.

Ta‘lim jarayonida muloqotning og‘zaki va yozma shakllaridan foydalaniladi.

Ogʻzaki davra suhbatida taʼlim beruvchi mavzuni boshlab beradi va taʼlim oluvchilardan ushbu savol boʻyicha oʻz fikr-mulohazalarini bildirishlarini soʻraydi. Oʻquvchilar oʻz fikr-mulohazalarini ogʻzaki bayon etadilar. Soʻzlayotgan oʻquvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim boʻlsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib boʻlingandan soʻng atroflicha muhokama qilinadi. Bu esa taʼlim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Yozma nutqni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir taʼlim oluvchiga qogʻoz konvert beriladi. Har bir taʼlim oluvchi konvert ustiga maʼlum bir mavzu boʻyicha oʻz savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga oʻz javobini yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi. Shundan soʻng konvertni soat yoʻnalishi boʻyicha yonidagi taʼlim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana boʻylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yigʻib olinib, tahlil qilinadi.

Kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirish usullarini rivojlantirish mazkur algoritmi oʻzida mujassamlashadi:

- ✓ mashgʻulot tartibi, mavzusi yoki muammo eʼlon qilinadi;
- ✓ oʻquvchilar ish tartibi bilan tanishtiriladi;
- ✓ har bir taʼlim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha taʼlim oluvchi boʻlsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qoʻyiladi. Taʼlim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga oʻz ismi-sharifini yozadi.
- ✓ ishtirokchi konvert ustiga mavzu boʻyicha oʻz savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga oʻz javobini yozib, konvert ichiga solib qoʻyadi.
- ✓ Barcha konvertlar yigʻib olinadi, oʻqituvchi tomonidan baland ovozda oʻqiladi va tahlil qilinadi.
- ✓ Oʻqilgan javoblardan barcha ishtirokchilar oʻzlarining javoblarini tinglab tushunadilar, ammo hech kimga aytmaydilar.
- ✓ Barcha ishtirokchilardan qaysi javob yoqqani soʻraladi. Eng yaxshi javob xolisona baholanadi.

Ushbu usullar orqali taʼlim oluvchilarni muayyan mavzu boʻyicha baholash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, oʻquvchilar tomonidan hayotiy vaziyatlarning har xil shart-sharoitlarini vizuallashtirish orqali tushunish hamda oʻz nutqida qoʻllash usulidir.

Muloqotga oʻrgatish usullarini qoʻllash uchun oʻqituvchi tomonidan kichik loyiha ishlab chiqiladi. Bu taʼlim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Har bir fan boʻyicha oʻtilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan holatlar misolida muammolarni yechimini samarali topish

ko'nikmalarini shakllantirishga erishish zarur. Bu usullardan foydalanish natijasida o'quvchilar o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlariga erishish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdullaeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish. - Farg'ona: FarDU, 2008.
2. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. - T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008.
3. Axmedjanov M.M., Xo'jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014.